

ABU ALI IBN SINO VA ABU HOMID G‘AZZOLIYNING “RISOLAT UT-TAYR” ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Kasimoxunova Nargizaxon

“Yangi asr” universiteti Filologiya fakulteti

Arab tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Halimova Shahlo To‘lqin qizi

Alfraganus University Sharq

filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Sino va Imom G‘azzoliy qalamiga mansub “Risolat ut-tayr” asarlarining mazmunini, timsoliy va falsafiy-irfoniy jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki risolada qush obrazi ruhning ilohiy manzilga intilishi timsoli sifatida qanday talqin etilishi, ruhiy sayohatning maqsadi, undagi majoziy qatlamlar, shuningdek, mualliflarning dunyoqarashi va ilmiy-ma’rifiy yondashuvlaridagi farqlar yoritiladi. Arab tilida yaratilgan har ikki asarning Sharq adabiy muhitida tutgan o‘rni tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: arab adabiyoti, risola, tayr, lison, qush tili, tasavvuf, Qur’on.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the thematic, symbolic, and philosophical–mystical aspects of the Risālat al-Ṭayr works authored by Ibn Sina and Imam al-Ghazali. The study examines how the image of the bird is interpreted in both treatises as a symbol of the soul’s aspiration toward its divine origin, as well as the purpose of the spiritual journey, its allegorical layers, and the differences in the authors’ worldviews and intellectual approaches. The research also explores the place of these two Arabic-language works within the literary and spiritual environment of the Eastern Islamic world.

Key words: arabic literature, treatise, tayr, lisan, bird language, sufism, Quran.

“Qush tili” asrlardan-asrlarga o‘tib kelayotgan eng qadimgi ibora hisoblanadi. Alloh taolo insonni ziynatlar ekan, unga jamiyki maxluqotlarda yo‘q sifatni – nutq bayon etmoq qobiliyatini hadya etdi. Inson tili ila va unda tuzilgan fikrlar marjonidan hosil etgan nutqi ila goh o‘zini ma’rifatga, goh esa jaholatga yo‘llaydi. Said ibn Jubayr roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat qiladilar: “Odam bolasi uyg‘onganida barcha a’zolar tilga qarab bunday deydi: “Biz haqimizda Allohdan qo‘rq. Zero, sen to‘g‘ri bo‘lsang, biz ham to‘g‘ri bo‘lamiz. Agar sen buzilsang, biz ham buzilamiz, Haqdan ayrilamiz”. Darhaqiqat, inson lisoni borliq mavjudotidagi jamiyki yaratilmishlar ichida o‘z qudratiga ega ekanligi yuqoridagi hadisda o‘z ifodasini topgan. Shu xususida inson lisonining ilohiy hamda irfoniy jihatdan nimalarga qodir ekanligini namoyon etish uchun qush obrazini badiiyatda jonlantirish, ularga nutq ato etish Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan didaktik ruhdagi “Qushnomalar” genezisi ilohiy-muqaddas kitob Qur’oni Karim bilan bog‘liq ravishda o‘rganilishi eng maqbul yo‘ldir.

XI–XII asrlarda qasidalarga diniy-tasavvufiy hamda didaktik-tarbiyaviy mavzularni yoritishda majoziy obrazlardan foydalanish yetakchi o‘rin egalladi. Bu jihatdan, qushlar motivi orqali badiiylashtirilgan lirik asarlarning o‘rni beqiyos. Shu bilan birgalikda, bu davrga kelib, xuddi shu talqindagi risolalarning butun boshli an’anasi shakllandi. Bunga Abu Ali ibn Sino (980–1037) “Risalat ut-tayr” asari bilan qadam qo‘yib berdi. Ushbu asarda Ibn Sino o‘z ma’naviy tajribasi hamda haqiqatni topish yo‘llarini yoritishga harakat qildi. Asarni umrining so‘nggi davrida Fardjon qal’asida, Hamadon yaqinida qatl qilinishini kutgan holda yozgan. Ilm ahliga tibbiyotga oid asarlari ila ma’lum va mashhur bo‘lgan Ibn Sinoning o‘zi ko‘pgina asarlari falsafaga qiziquvchi ommaga bag‘ishlanganligini e’tirof etadi. Qissada hikoya qilinishicha, qushlar tuzoqqa tushishadi va oyog‘ida qolib ketgan tuzoqni yechish uchun “Buyuk Podsho” huzuriga sakkiz tog‘ni (asarda “buq’a deb nomlanadi) oshib borishi kerakligi aytiladi va ularga o‘zlariga o‘xshagan va jabr ko‘rgan boshqa qushlar yo‘l ko‘rsatishadi. Qushlar sakkizinchi tog‘dan oshib o‘tib

“Buyuk Podsho” huzuriga yetib boradilar. Podshohni ko‘rgan qushlar ahvoli quyidagicha ta’riflanadi: “Parda ko‘tarilib, podshoh jamoliga ko‘zimiz tushgach, unga ko‘nglimiz tushib, hammamiz hushimizdan ketib, shikoyat qilishga ham qodir bo‘lmay qoldik”. Buyuk Podshoh esa ularning dardidan ogoh bo‘lib, oyog‘idagi tuzoqni uni qo‘ygan kishidan boshqa hech kim yecha olmasligini, ovchiga elchi yuborib, tuzoqni yechishini iltimos qilishini aytadi¹²⁶. Ibn Sino qissani shunday quradiki, go‘yo o‘zi ham keyingi voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgandek tuyuladi. Ibn Sino: “Biz o‘z tuzog‘imizga ko‘nikdik, qafasimizda o‘zimizni xotirjam his qildik” – deyish orqali inson ruhlarini bir paytlar Xudodan uzoqlashib, tuban, foni dunyoda panoh topgan, xuddi qafasda, o‘z tanasida qamalib qolgan qushlarga o‘xshatadi. Ammo bir lahza keladiki, bir nechta qushlar hali ham qafaslardan chiqib ketishga muvaffaq bo‘lishadi: ular uchib ketishdi, lekin kishanlar va arqonlarning qoldiqlari oyoqlarida osilgan holda qoldi, bu ularning qafaslardan qochishlariga to‘sqinlik qila olmadi, lekin ularga erkinlikdan to‘liq bahramand bo‘lish uchun imkon bermadi. Qushlarga qarab, Ibn Sino birdan o‘ziga berilgan erkinlikni eslaydi va uning qadriga shubha qilishga jur‘at etgani va qafasga qamalib qo‘yishiga yo‘l qo‘ygani uchun o‘zidan achchiqlanadi. U qushlardan chiqishga yordam berishlarini iltimos qiladi va faqatgina qanotlarini muvaffaqiyatli bo‘shatsa-da, oyoqlari bog‘langan holda qoladi. Bu lahzani Ibn Sino aytayotgan qushlar sayohatining boshlanish nuqtasi deb hisoblash mumkin. Risola mazmunidan anglash mumkinki, ularda hakim Ibn Sino ma’naviy, ruhiy va jismoniy, inson va Haqqa oid masalalarni, insonning g‘ayriqliy quvvati – ruhiy ko‘z bilan sirli olamni bilib olish qobiliyati kabi mulohaza va kashfiyotlarni ifodalagan¹²⁷.

Abu Homid G‘azzoliyning “Risalat ut-tayr” asari syujet va kompozitsiya, g‘oyasi bilan farq qiladi. Ko‘plab tadqiqotchilar G‘azzoliy ushbu risolasini umrining boshi yo oxirida yaratganligi xususida munozaralar qilishadi. G‘azzoliyning

¹²⁶ Ибн Сино. Тайр қиссаси. А. Ирискулов таржимаси. “Ўзбек адабиёти” Бешинчи том, иккинчи китоб. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. – Б. 322 – 327.

¹²⁷ Болтаев М. Абу Али Хусайн Ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти. – Б.: Бухоро нашриёти, 2001. – Б. 15.

“Risalat ut-tayr” asari narsiy bayondan iborat bo‘lib, unda poetik hodisalar va Qur’on oyatlari mahorat bilan kiritilgan. Keyinchalik esa ushbu hikoya Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari so‘zboshisiga ko‘chgan: “Garchi har bir qushda o‘zigagina xos bo‘lgan xonish qilish uslubi va har birining o‘z makoni bo‘lsa-da, ular o‘zlariga shoh kerakligi to‘g‘risidagi jo‘rovoz qarorga kelishadi: “Har safar biz uning saroyiga kelar ekanmiz, shohga o‘z ehtiyojlarimiz haqida ayta olaylik”. Shunda qushlar bir ovozdan faqatgina Simurg‘ podshoh taxtiga o‘tirishga loyiq ekanligini, uning shoh bo‘lishi uchun sharoit yaratish lozimligini bir ovozdan aytishadi. Uni taxtga o‘tqazish kerak, axir podshohsiz hayot sahosida osonlikcha dushman qo‘liga tushish va katta baxtsizlikka yo‘liqish mumkin.” Qushlarda savol tug‘iladi: qaysi yo‘l podshohga olib boradi? Savolga javob berib al-G‘azzoliy “haft manzil”, ya’ni yetti manzilni aytib o‘tadi. U bu joylarning izchil ta’rifini bermaydi. G‘azzoliy qushlar sayohati haqidagi ajoyib syujetni taqdim etadi. Unda Allohni anglab yetgan qalbning holati batafsil yoritib berilgan. Muta’fakkir hech qayerda bu holatlar almashinuvini ko‘rsatmaydi, u asarni bo‘lim va boblarga ajratmay, yaxlit matnning o‘zini keltiradi. Bunga qaramay, “Risalat ut-tayr”dagi qalb manzillari ketma-ketlikka ega ekanligini aytib o‘tish joiz. Avvaliga qallda Allohga bo‘lgan muhabbat va otashin intilish uyg‘onadi(qushlarni podsho Simurg‘ni topish istagi birlashtiradi). Keyinchalik bu hislar o‘z tadrijiga yetib, izlamoq ilinjida qushlar Podshoh haqida xabarlarni surishtiradilar va uning saltanati haqida bilib oladilar, yuksak sabr va matonat ila manzilga yo‘l olib, barcha azob va qiyinchiliklarni yengadilar. Pirovardida esa, sinovlar xulosasi ularga Alloh taolo O‘zining bandalariga hech qachon muhtoj bo‘lmasligini anglab yetadilar. Shundan so‘ng, qushlarda o‘z Podshohlari(Alloh)ga bo‘lgan taslimlik, mutlaq itoat hissi hosil bo‘ladi. Yakunida uzoq kutilgan Alloh jamoliga yetish baxti nasib etadi. Ya’ni qushlar Simurg‘ dargohiga kiradilar va uning taxtini qurshab oladilar. Shundagina qalblari chinakam sakinatni his qiladi, sababi ular boqiy davom Simurg‘ning huzurida qolishadi va chin hayotga erishishadi. G‘azzoliy faqat xotimada hikoyaning izohini beradi. Muta’fakkir o‘zgacha e’tibor bilan matnning nozik

tomonlarini yoritadi. “Risalat ut-tayr”ni tugatayotib, al-G‘azzoliy barcha odamlarni Allohni sevishga va “qush tili”ni o‘rganishga chaqiradi. Mutafakkirning aytishicha, bunga erishish uchun inson ichki va tashqi poklikka intilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, arab tilida yaratilgan noyob ikki risolaning tashqi syujet shakli – qushning sayohati, ruhning ozod bo‘lishi, majoziy tasvirlar – o‘xshash bo‘lsa-da, ularning ichki mohiyati turlicha konsepsiyaga tayanadi. Ibn Sino asarida falsafiy ontologiya va aqliy gnoseologiya yetakchi o‘rin egallagan bo‘lsa, G‘azzoliyda axloqiy-tarbiyaviy tasavvuf manzarasi ustuvor. Shu tariqa, ikkala risola Sharq tafakkurining ikki muhim qatlamini – falsafiy irfon va tasavvufiy irfonning uyg‘un, ammo bir-biridan farqli talqinlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Али ибн Сино. Рисола ат-тайр. Қўлёзма. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №: 2385.
2. Абу Ҳомид Муҳаммад Ал-Ғаззолий. Рисола ат-тайр. Қўлёзма. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №: 13262.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Risolat ut-tayr. R.Hakimjonova tarjiması. “Sharq yulduzi” jurnali, 2015.
4. Болтаев М. Абу Али Хусайн Ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти. – Б.: Бухоро нашриёти, 2001. – Б. 15.
5. Ибн Сино. Тайр қиссаси. А. Ирискулов таржимаси. “Ўзбек адабиёти” Бешинчи том, иккинчи китоб. – Т.: Фафур Фулом, 1968. – Б. 322 – 327.
6. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
7. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.

8. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.

9. Toshmatova, S. (2023). Recommendations on Poetic Translation From Uzbek Into English Language. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 19, 146-149.

10. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные вестн*, (10), 46-50.

11. Махмудова, Ш. А., & Республикаси, Ў. (2021). НУТҚДА СЎЗНИ ТЎҒРИ ТАНЛАШ МЕЗОНЛАРИ. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 1148-1151.

12. Valievna, A. D. (2026). PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF PATRIOTIC IDEAS IN MODERN UZBEK POETRY. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(1), 80-87.

13. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o‘zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida* (pp. 136–139). Alfraganus University.

14. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziy merosida tarjima nazariyasi va didaktikasi: “Risalatun fin-nahv” asari va zamonaviy tarjima ta’limi integratsiyasi*. *Science Time Journal*, 3(5), 150–155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>

15. MUZEYI, A. N. N. D. A., & MEROSI–MO‘TABAR MADANIY, M. A. N. B. A. (2024). ORIENTAL UNIVERSITETI O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI.

16. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she’riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.

17. Jurayeva, N. G. (2022). O ‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O ‘RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.